

“FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARI – JAMIYAT BARQARORLIGI VA TARAQQIYOTI NING KAFOLATI”

Xusanova Dono

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15210568>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari yoritilgan. Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik burchlari jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining asosiy omili sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada har bir fuqaroning Konstitutsiyaga rioya etish, davlatni himoya qilish, soliq to‘lash, tarixiy va madaniy merosni asrash, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi burchlari to‘g‘risida batafsil tushuncha berilgan. Burchlarning bajarilishi mamlakatda qonun ustuvorligini, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, fuqarolik burchi, qonun, jamiyat barqarorligi, davlat himoyasi, soliq, madaniy meros, ekologik mas‘uliyat, ijtimoiy tartib, huquqiy normalar.

"CONSTITUTIONAL DUTIES OF CITIZENS - A GUARANTEE OF SOCIETY'S STABILITY AND DEVELOPMENT"

Abstract. This article covers the constitutional duties of citizens as stipulated in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The personal, political, economic, social and environmental duties of citizens are considered as the main factor of society's development and stability. The article also provides a detailed understanding of the duties of each citizen to comply with the Constitution, protect the state, pay taxes, preserve historical and cultural heritage, and protect the environment. The fulfillment of duties serves as an important factor in ensuring the rule of law and social stability in the country.

Keywords: Constitution, civic duty, law, social stability, state protection, tax, cultural heritage, environmental responsibility, social order, legal norms.

«КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОБЯЗАННОСТИ ГРАЖДАН ЯВЛЯЮТСЯ ГАРАНТИЕЙ СТАБИЛЬНОСТИ И РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА»

Аннотация. В данной статье рассматриваются конституционные обязанности граждан, закрепленные в Конституции Республики Узбекистан. Личная, политическая, экономическая, социальная и экологическая ответственность граждан считается ключевым фактором развития и стабильности общества.

В статье также подробно излагаются обязанности каждого гражданина, такие как соблюдение Конституции, защита государства, уплата налогов, сохранение исторического и культурного наследия, защита окружающей среды. Выполнение обязательств является важным фактором обеспечения верховенства закона и социальной стабильности в стране.

Ключевые слова: Конституция, гражданский долг, закон, социальная стабильность, государственная защита, налог, культурное наследие, экологическая ответственность, общественный порядок, правовые нормы.

Fuqarolarning huquq va burchlari — fuqarolarning Konstitutsiya va qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan asosiy huquq va burchlari. Ular davlat organlari tomonidan muhofaza etiladi va bajarilishi nazorat qilinadi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 2-bo'limida fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari quyidagicha turkumlanadi:

- Shaxsiy huquq va erkinliklar;
- Siyosiy huquqlar
- iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning quyidagi burchlari ko'rsatilgan: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadrgimmatini hurmat qilishga; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga; atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga; qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

2-bo'limning 5-bobi Umumiy qoidalar deb nomlanib va bobning **19-moddasida O'zbekiston Respublikasida** insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi.

Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart deb belgilab qo'yilgan.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Bundan tashqari, Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-bobi Fuqarolik** deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasida yagona fuqarolik o'rnatilishi, **Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi** ham ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi va bundan tashqari qonunda fuqarolikka ega bo'lish va fuqarolikni yo'qotish asoslari tartibi alohida ifodalangan.

Konstitutsiyaning 7-bobi shaxsiy huquq va erkinliklar deb belgilab qo'yilgan.

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi.

Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas;

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi va bundan tashqari yana bir qancha normalarda insonning shaxsiy huquqlari ifodalangan.

8-bobida Siyosiy huquqlar deb nomlanib unda quyidagicha normalar belgilab qo'yilgan: O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish,

shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi;

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi; Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega; O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Konstitutsiyamizning keyingi bobi Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar deb belgilab qo'yilgan. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.**(41-modda)**

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniş huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.**(42-modda)**

Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi.**(43-modda)**

Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi. **(44-modda)**

Har kim dam olish huquqiga ega. Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tilini belgilash orqali ta'minlanadi.**(45-modda)**

Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot huquqiga ega. **(46-modda)**

11-bobi Fuqarolarning burchlari: Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar, fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart, tarixiy, ma‘naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar, fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart, soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak.